

Uchqo'rg'on tumanidagi ayrim aholi punktlari, mahalla fuqarolari yig'inlari va ko'chalarni nomlarini o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 04.03.2014 yildagi 48-son hamda "Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 20 yanvardagi 34-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastr davlat qo'mitasining 2020-yil 4-avgustdagi 02-08-7010-sonli xati, 2020-yil 11-avgustdagi "Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davergeodezkadastr qo'mitasi ekspert komissiyasining yig'ilish bayoni" ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2020-yil 10-avgustdagi 4-sonli xulosasi va tuman hokimining tumandagi ayrim mahalla va ko'chalarning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi taklifini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Uchqo'rg'on tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2020-yil 10-avgustdagi 4-sonli xulosasiga muvofiq, tuman hokimining ayrim mahalla fuqarolar yig'inlari va ko'chalarni nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Tumanda nomlari o'zgartirilgan aholi punktlari, mahalla fuqarolar yig'inlari va ko'cha nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo'limi (J.Kamolov), tuman yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasi (S.Turg'unov), tuman qurilish bo'limi boshlig'i (M.Tursunov) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari o'zgartirilgan aholi punktlari, mahalla va ko'chalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Tuman qurilish bo'limi boshlig'i (M.Tursunov)ga tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan birgalikda tuman xududida nomlari

o`zgartirilgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini yangi nomlari yozilgan ko`rsatkich va belgilar hamda peshlavxalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o`rnatilishi topshirilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo`limi boshlig`i (O.Jabborov) nomlari o`zgargan mahalla fuqarolar yig`inlari va ko`chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur xudud aks ettirilgan yo`l belgilariga tegishli o`zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo`yicha tuman komissiyasi tumandagi MFY raislari (ro`yxat bo`yicha) bilan birgalikda: geografik obektga nom berish yoki uni qayta nomlash to`g`risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi bo`yicha viloyat ekspert komissiyasi xulosasiga ko`ra, taklif etilgan nomlari nomuvofiq deb topilgan obektlar bo`yicha 1 oylik muddatda o`rganishlar o`tkazib, shu hududda yashovchi aholi fikrini inobatga olgan holda qo`shimcha takliflar kiritish topshirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e`lon qilingan kundan e`tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta`lim, sog`liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo`yicha doimiy koimissiyasi raisi Sh.Toshpo`latova zimmasiga yuklatilsin.